

## INGLIZ TILI MORFOLOGIYASIDA SO`Z TURKUMLARINI O`RGANISH ZARURIYATI

*Mashrabjonov Oybek*

*Yetakchi o`qituvchi*

*Andijon davlat chet tillar*

*instituti magistranti*

**Annotatsiya** Bilamizki, so`zlar anglatgan ma`nolariga ko`ra ma`lum turkumlarga bo`linadi. Tildagi so`zlar bir-biridan nafaqat anglatgan aniq ma`nolari orqali, balki grammatik xususiyatlari bilan ham farqlanadi. Umumiylashtirilgan semantik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan so`zlarning eng katta guruhlari so`z turkumlari deb ataladi.

**Kalit soz`lar:** tilshunoslik, so`z turkumlari, ingliz tili, morfologiya.

### ANNOTATION

We know that words are divided into certain categories according to their meanings. Words in the language differ from each other not only by their specific meanings, but also by their grammatical features. The largest groups of words that differ in general semantic and grammatical features are called word groups.

**Key words:** linguistics, word groups, the English language, morphology.

**Аннотация** Мы знаем, что слова делятся на определенные категории в соответствии с их значениями. Слова в языке отличаются друг от друга не только конкретными значениями, но и грамматическими особенностями. Самые крупные группы слов, отличающиеся общими семантическими и грамматическими признаками, называются группами слов.

**Ключевые слова:** лингвистика, группы слов, английский язык, морфология.

Tilshunoslardan so`z turkumlari uzoq yillar mobaynida o`rganib kelinayotganiga qaramasdan, ingliz tilida ham haligacha aniq bir to`xtamga

kelinmagan. Bunday deyishimizga sabab leksemalarni mal`um bir sinfini aniqlashda subyektiv usullar mavjud bo`lib, biz bu borada turlicha tasniflarga duch kelishimiz mumkin.

Tilshunoslar so`zlarni turkumlarga ajratuvchi me`zonlar, belgilar to`g`risida ham turli qarashlarni bayon etib o`tganlar. Olimlar orasida asosan quyidagi savollar o`zaro tortishuvlarga sabab bo`lib kelmoqda: a) so`zlarni turkumlarga ajratish kerakmi yoki kerak emasmi? b) so`z turkumlarining soni nechta? v) so`z turkumlarining qaysilari asosiy (mustaqil) va qaysilari yordamchi? g) so`zlarni turkumlarga ajratishda qaysi tamoyillarni asos qilib olish kerak? Bunday savollarning tug`ilishiga sabablar quyidagilar: a) muayyan so`z turkumlariga kiritish qiyin bo`lgan soz`larning mavjudligi, masalan, sifatdosh bir vaqtning o`zida ham fe'llik ham sifatlik xususiyatlarini o`zida jamlagan; b) so`zlarning bir turkumdan ikkinchi turkumga doimiy o'tib turishi; c) ayrim konstruksiya va iboralarda so`zlarning turkumiyligi belgilari qat'iy belgilanmasligi kabilardir.

Ingliz tilida so`z turkumlarining tasnifi uchta asosiy tamoyilga tayanadi: ma'no, shakl va vazifa. ***Ma'no deganda*** har bir so`zning alohida ma'nosini emas, balki bir sinfga tegishli so`zlarning ma'nosini tushunamiz. Masalan, otning ma'nosini narsalik yoki predmetlik (thing - ness), shakl deganda esa biz so`z turning morfologik tasniflanishini tushunamiz. Masalan, otlar birlik va ko'plik kategoriysi bilan tavsiflanadi, fe'lllar esa zamon, nisbat, mayl kabilalar orqali tavsiflanadi. Ba'zi so`z turkumlari (predloglar, bog'lovchilar) o'zgarmasligi bilan o'ziga xos hisoblanadi.

***Vazifa deganda*** biz, so`zlarning sintaktik funksiyalarini tushunamiz. Masalan, boshqa so`zlar bilan birika olishi yoki uning gapdagisi vazifasi kabilar. Tilshunoslar orasida so`z turkumlarining tasniflanishi bir biridan farq qiladi.

Ingliz tili ilmiy grammatikasining birinchi muallifi G.Suit so`z turkumlarini o'zgaradigan (declinable) va o'zgarmaydigan (indeclinable) 2 asosiy guruhga ajratadi. Bu tasnifida u morfologik xususiyatlarni asosiy omil deb hisoblaydi. B.Ilyish so`z turkumlarini 12 ta turga ajratadi (6 ta mustaqil va 6 ta yordamchi – prepositions, conjunctions, particles, modal words, articles, interjections).

B.S.Xaymovich va B.I.Rogovskayalar so'z turkumlarini 14 taga bo'lib (6 ta mustaqil, 8 ta yordamchi-prepositions, conjuctions, particles, modal words, articles, interjections, response words, state words) leksemalarning quyidagi 5 xususiyatiga ko'ra turkumlarga ajratadi:

- 1) leksik-grammatik ma'nosiga ko'ra;
- 2) leksik-grammatik morfemalarga ko'ra;
- 3) grammatik kategoriylariga ko'ra;
- 4) boshqa so'zlar bilan birikishiga ko'ra;
- 5) gapdagi vazifasiga ko'ra1.

Akademik A.A.Shaxmatovning fikriga ko'ra, so'z turkumlari sintaksisda o'r ganilishi kerak2. Tilshunos olim B.Ilyish so'z turkumlari nazariyasini ba'zi sintaktik jihatlarini ham qamrab olgan holda morfologiyaning asosiy qismi deb hisoblaydi3. Tilshunos olim E.M.Gordon so'z turkumlariga quyidagicha ta'rif berib o'tgan4: "Har bir tildagi mavjud so'zlar ma'lum so'z turkumlariga mansub bo'lib, har bir so'z turkumi o'z xususiyatiga ega. So'z turkumlari bir-biridan ma'nosи, shakli va gapdagi vazifasiga ko'ra farq qiladi". J.Bo'ronov, M.Bo'ronova5, M.Toshboyevalar tomonidan yozilgan "Ingliz tili grammatikasi" kitobida so'z turkumlari soni 14 da deb qayd etilgan:

1.Ot (Noun). 2. Sifat (The Adjective) 3. Olmosh (The Pronoun). 4. Son (The Numeral). 5. Fe'l (the Verb). 6. Ravish (The Adverb). 7. Holat kategoriyasi (The category of State). 8. Modal so'zlar (The Modal words). 9. Predlog (The Preposition). 10. Yuklama (The Particle). 11. Bog'lovchi (The Conjunction). 12. Undov so'zlar (The Interjection). 13. Artikl (The Article). 14. Javob so'zlar

1. O'.U. Usmonov, Sh.S. Ashurov " Ingliz tili nazariy grammatikasi ", Samarqand, 2007, b.-20

2. A.A.Шахматов "Синтаксис русского языка" М., 1941.
3. B.Ilyish The structure of Modern English. Leningrad, 1971
4. E.M.Gordon, I.P.Krylova "A Grammar of Present – Day English" M., 1974

5. Bo‘ronov J.B., M.Bo‘ronova, M.Toshboyaev. “Ingliz tili Grammatikasi” T.1978, 5-bet.

(The Response Words)

6. V.L.Kaushanskayaning “A Grammar of English language” asarida so‘z turkumlari quyidagi turlarga ajratiladi: *ot, sifat, olmosh, son, fe'l, ravish, holat kategoriyasi, modal so‘zlar, undov so‘zlar;* yordamchi so‘z turkumlari: *predlog, bog‘lovchi, yuklama, artikl.*

Tilshunos olimlar K.N.Kachalova, E.E.Izrailevichlar<sup>7</sup> so‘zlarni quyidagi belgilariga ko‘ra turkumlarga ajratadilar:

- 1) ma’nosiga ko‘ra;
- 2) gapdagi vazifasiga ko‘ra;
- 3) so‘z yasash shakliga ko‘ra;
- 4) so‘z o‘zgarish shakliga ko‘ra.

Ingliz tilida so‘z yasalish shakli va so‘z o‘zgarishi bir so‘z turkumini boshqa so‘z turkumidan ajratishda unchalik muhim ahamiyat kasb etmaydi. Tilshunos olim K.N.Kachalova<sup>8</sup> so‘z turkumlarini quyidagi so‘z turkumlariga ajratadi: *ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, predlog, bog‘lovchi, undalma.* Olim *ot, sifat, son, olmosh, fe'l* va *ravishni* ularning gapdagi predmetni, belgini, ish-harakatni va gapda ma’lum bir sintaktik vazifani bajarganligi uchun mustaqil so‘z turkumlariga, *predlog, bog‘lovchi* va *artiklni* yordamchi so‘z turkumlari guruhiga kiritadi. Undalmani mustaqil so‘z turkumiga ham, yordamchi so‘z turkumiga ham kiritmaydi, chunki ular gapda hech qanday sintaktik vazifa bajarmaydi.

Bundan tashqari tilshunos olim E.M.Gordon<sup>9</sup> so‘zlarni 3 asosiy guruhga bo‘ladi: 1) mustaqil so‘zlar 2) yordamchi so‘zlar 3) mustaqil elementlar.

Mustaqil so‘zlarning aniq leksik ma’nosi mavjud bo‘lib, ular gapda mustaqil vazifa bajaradi. Ular gapda gapning bosh bo‘laklari bo‘lib kelishi mumkin.

6. Ganshina M.A. va Voselevskaya, “English Grammar”, Higher School Publish House, M.,1964.

7. К.Н.Качалова, Е.Е.Израилевич “ Практическая грамматика английского языка” М., 1996.

8. К.Н.Качалова, Е.Е.Израилевич “ Практическая грамматика английского языка” М., 1996.

9. E.M.Gordon, I.P.Krylova “A Grammar of Present – Day English” M., 1974

Mustaqil so‘zlarga fe’l, ot, sifat, son, olmosh va ravish kiradi.

Yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlardan semantik jihatdan farq qiladi.

Yordamchi so‘zlar gapda biror bir funksiyani bajarmaydi.Lekin ular gapda so‘zning ma’nosini aniqlaydi. Masalan, “the” yoki “a” artikllarini misol qilib oladigan bo‘lsak, A table- stol (noma'lum). Ingliz tilida artikel, yuklama, predlog va bog‘lovchilar yordamchi so‘z turkumlariga kiradi. Mustaqil elementlar turli ma’nolari bilan xarakterlanadi. Mustaqil elementlar gapda hech qanday sintaktik vazifani bajarmaydi. Masalan, He **certainly** knows all about it. (U, **albatta**, buni biladi.)

Mustaqil elementlar ba’zan bittta gapni tashkil qilishi ham mumkin. Masalan, Yes. No. Alas.

Mustaqil elementlarga E.M.Gordon 10 quyidagilarni kiritadi:

1. Modal so‘zlar (Modal words).

2. His-hayajon so‘zlar (Exclamatory words).

3. Tasdiq va inkor so‘zlar (Tag questions).

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O’.U. Usmonov, Sh.S. Ashurov “ Ingliz tili nazariy grammatikasi ”, Samarqand, 2007, b.-20

2. А.А.Шахматов ”Синтаксис русского языка” М., 1941.

3. B.Ilyish The structure of Modern English. Leningrad, 1971

4. E.M.Gordon, I.P.Krylova “A Grammar of Present – Day English” M., 1974

5. Bo‘ronov J.B., M.Bo‘ronova, M.Toshboyaev. “Ingliz tili Grammatikasi” T.1978, 5-bet.

6. Ganshina M.A. va Voselevskaya, “English Grammar”, Higher School Publish House, M., 1964.
7. К.Н.Качалова, Е.Е.Израилевич “ Практическая грамматика английского языка” М., 1996.
9. E.M.Gordon, I.P.Krylova “A Grammar of Present – Day English” M., 1974
10. E.M.Gordon, I.P.Krylova “A Grammar of Present – Day English” M., 1974